

## INGLIZ TILIDA SHAXS OTLARINING YASALISHIGA DOIR METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Babajonova Iqbol Salamaddinovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14632528>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada ingliz tilida shaxs otlarining qo'shimchalari va ularning ahamiyati, nazariy metodologik jihatlari hususida fikr va mulohazalar yuritilgandir. Ingliz tili grammatikasida shaxs otlarining yasalishi morfologik, sintaktik, prafmatik, semantic, kognitiv, generativ usullariga doir nazariyalar ochib berilgan.

*Kalit so'zlar:* morfologiya, fonetika, usul, qo'shimcha, ingliz tili, shaxs otvari, prefix, infix, suffix va boshqalar.

### METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE FORMATION OF PERSONAL NOUNS IN ENGLISH

*Abstract.* This article discusses the affixes of personal nouns in English and their significance, theoretical and methodological aspects. Theories on morphological, syntactic, pragmatic, semantic, cognitive, generative methods of the formation of personal nouns in English grammar are revealed.

*Keywords:* morphology, phonetics, method, affix, English language, personal nouns, prefix, infix, suffix, etc.

### МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБРАЗОВАНИЮ ЛИЧНЫХ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

*Аннотация.* В статье рассматриваются суффиксы личных имен существительных в английском языке, их значение, а также теоретические и методические аспекты.

Разработаны теории относительно морфологических, синтаксических, pragматических, семантических, когнитивных и генеративных методов образования личных существительных в английской грамматике.

*Ключевые слова:* морфология, фонетика, метод, суффикс, английский язык, личные существительные, префикс, инфикс, суффикс и т. д.

So'nggi yillarda mamlakatimizda chet tillarni o'qitish tizimi sifatini xalqaro standartlarga muvofiq tarzda takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgani mazkur maqolaning dolzarbligini belgilab beradi. Ta'lism tizimida chet tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va

baholash”ning xalqaro me’yorlari (CEFR – Common European Framework of Reference) tadbiq etilayotganligi ham o‘z navbatida o’quvchilarda faol muloqot muhitini yaratish asosida ularning muloqot madaniyatini rivojlantirishga erishishga imkon beradi. Shunga ko‘ra, OTMga kirishda CEFR va IELTS (International English Language Testing System) mavjudligini inobatga olish joriy etildi. “yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliv ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish” ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Ushbu vazifani hal etish doirasida ingliz tili ta’lim sifatini yaxshilash, o‘qitish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda lingvistik, grammatik jihatdan yanada kengroq tushuntirish hamda o’zbek tili bilan birgalikda taqqoslash, qiyosiy o’rganish ikki tilda ham grammatik jihatdan o’rganish samaradorlik ko’rsatkichini anchayin darajada oshirib beradi.

Mamlakatimizda til o’rganishga e’tiborning ortishi natijasida bugungi kunga kelib bir qator ilmiy ishlar amalga ooshirilgandir. Xususan ingliz va o’zbek tillarida shaxs otlarining yasalishiga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Tilning generativ grammatikasi va morfologiyasini o’rgangan olim N.Chomsky, Shaxs otlarining yasalishi va ularning sintaktik va semantik jihatlarini izohlashda asosiy yondashuvlarni ishlab chiqqan.

“Syntactic Structures” (1957) G.Leech Semantika va pragmatika bo‘yicha hamda Shaxs otlarining konnotativ va denotativ ma’nolari haqidagi tahlillarni o’rgangan. “Principles of Pragmatics” (1983) J. Lyons Semantika va lingvistik falsafaga oid tadqiqotlari mashhur. Shaxs otlarining semantik toifalari va ularning kontekstual qo’llanilishini o’rgangan. “Linguistic Semantics: An Introduction” (1995) G.Yule Pragmatika bo‘yicha tadqiqot olib borgan hamda Shaxs otlarining ijtimoiy muloqotdagi vazifasi va kontekstual moslashuvini o’rgangan.

“Pragmatics” (1996). R.Lieber Ingliz tilidagi shaxs otlarini suffiksatsiya va kompozitsiya orqali shakllanishini o’rgangan. “Morphology and Lexical Semantics” (2004) O’zbek tilida S.Rahmatullayev “O’zbek tilining semantikasi” (2002), G’Mirzayev “O’zbek tilining sintaksisi” (1980), I.Meliyev “Tilshunoslik metodologiyasi” (2000), Sh.Sodiqov “O’zbek tilining sintaksisi” (1980) va boshqalar o’zbek tilida shaxs otlarining semantik va pragmatik jihatlari, ijtimoiy kontekstsda qo’llanilishi shaxs otlarini yasalishida qo’shimchalarining ahamiyati haqida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ingliz va o’zbek tillarida shaxs otlarining yasalishiga doir qiyosiy o’rganishlar yuzasidan X.To’xtaboyev Shaxs otlarining shakllanishida milliy xususiyatlar va umumiy jihatlarni o’rgangan. O’.Umurzoqov Ingliz va o’zbek tillarida semantik va pragmatik jihatlarni taqqoslagan. N.Ergasheva Pragmatikaga oid qiyosiy o’rganishlar olib borgan.

N.Yoqubova esa Ingliz va o'zbek tillaridagi shaxs otlarining semantik va grammatik jihatlarini qiyosiy tahlil qilgan. Ammo ingliz va o'zbek tillarida shaxs otlarining yasalishi semantik va pragmatik xususiyatlarini lingvistik jihatdan izlanishlar yetarli darajada emasligi ishning dolzarbligini ko'rsatib beradi.

Shaxs otlari lingvistik tahlilning muhim qismidir. Ular nafaqat so'z yasalishi jarayonining grammatik va semantik asoslarini aks ettiradi, balki tilning ijtimoiy va madaniy funksiyalarini ham yoritib beradi. Shaxs otlarini o'rganishda quyidagi nazariy yondashuvlar qo'llaniladi:

**Struktural yondashuv.** Bu yondashuv shaxs otlarining grammatik qurilishini va ularning yasalish usullarini o'rganadi. Morfologik tahlil: Shaxs otlarining hosil bo'lishida prefiks, suffiks, yoki qo'shimcha kabi lingvistik vositalarni aniqlaydi.

Masalan: *Teach → Teacher (Ingliz tili), Haydash → Haydovchi (O'zbek tili)*.

Sintaktik rol: Shaxs otlarining gapda qanday vazifani bajarishini ko'rsatadi. Ferdinand de Saussure (Strukturalizm) Lev Shcherba (Morfologik yondashuv) nazariyalarida yoritib berilgan.

Masalan: *The teacher explained the lesson (Ingliz tili)*.

*O'qituvchi darsni tushuntirdi (O'zbek tili)*.

Semantik yondashuv: Bu yondashuv shaxs otlarining ma'nosini, ular orqali ifodalanadigan tushunchalarni va kontekstdagi ma'no o'zgarishlarini o'rganadi. John Lyons (Semantik nazariya) va Geoffrey Leech (Denotativ va konnotativ semantika) asarlarida ochib berilgan.

Denotativ ma'no: Shaxs otlarining asosiy lug'aviy ma'nosи. Masalan: *Doctor* – tibbiyot mutaxassisi.

**Konnotativ ma'no:** So'zning emotsiyal yoki ijtimoiy qo'shimcha ma'nosи.

Masalan: *Hero (Ingliz tili)* – jasur inson;

*Qahramon (O'zbek tili)* – jasur yoki buyuk tarixiy shaxs.

**Pragmatik yondashuv:** Pragmatik yondashuv shaxs otlarining muloqotdagi vazifasi, nutq maqsadi va kontekstga bog'liq qo'llanilishini o'rganadi. Muloqot vazifasi: Shaxs otlari muloqotda axborotni qanday uzatishini tahlil qiladi. Paul Grice (Pragmatik nazariya) George Yule (Nutqning kontekstual analizi)

Masalan: *Mr. Smith, could you help me?* – Hurmat ifodasi.

*Ustoz, yordam bering!* – Hurmatli murojaat.

**Ijtimoiy va madaniy kontekst:** Shaxs otlarining qo'llanilishida ijtimoiy mavqe, jins, yoki madaniyatga bog'liq o'zgarishlar.

Masalan: *Chairman → Chairperson* (gender neytrallikka intilish, Ingliz tili).

*Dehqonchi* → *Qishloq xo'jaligi xodimi* (zamonaviy ifoda, O'zbek tili).

**So'zning stilistik ko'rinishi:** Salbiy yoki ijobiy baholash usullari.

Masalan: *Boss* (norasmiy);

*Dangasa* (salbiy konnotatsiya).

Generativ grammatika yondashuvi: Generativ grammatika yondashuvi shaxs otlarining hosil bo'lishida kognitiv va qoidaviy tuzilmalarni o'rganadi. Noam Chomsky (Generativ grammatika) Rochelle Lieber (Morfologik tuzilmalar).

**So'z hosil qilish modullari:** Tilning ichki qoidalari orqali yangi shaxs otlarini hosil qilish.

Masalan: *Run* → *Runner* (*Ingliz tili*), *Qurish* → *Quruvchi* (*O'zbek tili*).

**Tilni o'zlashtirish:** Shaxs otlarining til egallash jarayonida qanday shakllanishi va qabul qilinishini o'rganadi.

Kognitiv yondashuv: Kognitiv tilshunoslik shaxs otlarining ma'nosini inson fikrlash va ong jarayonlari orqali o'rganadi. George Lakoff (Kognitiv lingvistika) Gilles Fauconnier (Kontseptual semantika)

**Metafora va metonimiya:** Shaxs otlari boshqa tushunchalar asosida ma'no orttiradi.

Masalan: *Brain* – aqli odam; *Eshon* – diniy sohada bilimdon shaxs.

**Ma'no kengayishi va torayishi:** Shaxs otlarining semantik chegaralari kengayadi yoki torayadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Shaxs otlarining yasalishi, semantik va pragmatik jihatlarini o'rganishda bir qancha nazariy yondashuvlar qo'llaniladi. Struktural, semantik va pragmatik yondashuvlar til tizimining ichki qonuniyatlarini tahlil qilishga yordam beradi. Generativ grammatika va kognitiv yondashuvlar esa shaxs otlarining yasalishini inson fikrlash jarayonlari bilan bog'laydi. Lingvokulturologik va qiyosiy yondashuvlar esa shaxs otlarini milliy-madaniy va xalqaro kontekstda tahlil qilishga imkon yaratadi.

## REFERENCES

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.–Toshkent: Fan, 1985.
2. Saydaliev S. Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar. - N. 2004.
3. Sayidrahimova N., Qobulova U. Lingvokulturologiya – tilshunoslikning alohida sohasi // O'zbek tili va adabiyoti, 2015.
4. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: “O'zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.